

## XORIJ PSIXOLOGIYASIDA MODDIY VA MA'NAVIY EHTIYOJLARNI O'RGANISH MUAMMOLARI

**Kudratov Akmaljon Ibodillayevich**

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi direktori,*

Tel: +998914578778

E-mail: akmaljonkudratov@gmail.com

Ehtiyojlarga tarixiy-genetik yondashuvga qarama-qarshi holda, shaxsni o'rganuvchi jahon nazariyotchilarining aksariyati inson ehtiyojlari sohasining ijtimoiy-tarixiy sabablardan kelib chiqishini, uning tinimsiz rivojlanishi va o'zgarishini hisobga olmaydilar, individni unga bo'ysunmaydigan harakatga soluvchi kuchlarning passiv, nafaol egasi deb tushunishadi, harakatga solish kuchlar-rag'batlantirish sohasini shaxsning boshqa jihatlaridan – uning dunyoqarashi, xarakteri, qobiliyatlaridan keskin cheklaydilar.

Bunday metodolik qarashlar shaxsning psixoanaliz, psixik tahlil va boshqa o'zini-o'zi ishga tushiradigan tushunchalar konsepsiyalar kabi turli, hatto bir-biriga zid nazariyalarini birlashtiradi.

Darxaqiqat, xorij psixologiyasida xulq-atvorni harakatga keltiruvchi kuchlar va ularning inson faolligini belgilash, determinatsiya qilish usuli masalasiga yechim topishda ikkita bir-biriga zid yo'nalish ajratib ko'rsatiladi. **Birinchi yo'nalish** tarafdorlari shaxsning "homeostatik" modelini ilgariga surishadi. Ushbu modelda bir qarashda bir-biridan keskin farq qiladigan freydzizm va neobixeviorizm bir-biriga o'zaro tutashib, qo'shib ketadi. **Ikkinchi yo'nalish** vakillari esa shaxsning tinimsiz shakllanish, rivojlanish va takomillashuvi fikrini himoya qiladi (Olpert, Maslou, Rojers, Sh. Broler va boshqalar).

Ma'lumki, freydistlar ikki umuminsoniy tug'ma kuchlarni – hayot instinkti (eros) va o'lim instinkti (tanatosni) isbot talab qilmaydigan dastlabki qoida (postulat) sifatida faraz qilishdan kelib chiqadilar. Freydga fikriga ko'ra, instinkt – inson organizmida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlardan bevosita chiqadigan asosiy bo'linmas psixik kuchdir [1, 201]. Hayot instinkti yashash, rivojlanish uchun intilishdan, o'lim instinkti esa pirovard natijada protoplazmaning o'lishi haqidagi voqelikdan kelib chiqadi. Freyning fikriga ko'ra, hayot instinkti insonning o'z-o'zini asrab qolish, shahvoniy hislarga berilganlik, muhabbat, mehr, huzur-halovat, tashabbus va boshqa barcha ijobiy manfaatlar va qiziqishlar bilan bog'liq xatti-harakatlar, fikrlar, his-tuyg'ular va havaslarning sababidir. O'lim instinkti esa agressiya, qotillik, buzish, nafrat, g'ayriinsoniylik, shafqatsizlik va boshqa salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi hatti-harakatlar, fikrlar, hissiyotlar, qiziqishlarning sababidir.

Freydistlarnig inson xulq atvorini harakatga soluvchi kuchlari haqidagi qarashlarini tahlil qilib, D. R. Miller: “Tug‘ma funksiyalar haqidagi farazlardan kelib chiqib, psixoanalitik (psixik tahlil) nazariya organizmning turli bosqichlarda salohiyatlarining yetilishiga va organizmning gomeostatik modeliga juda katta ahamiyat beradi”, deb adolatli tarzda asosli izoh beradi.

Neobixevioristlar shaxsning motivatsion sohasini organizmdan kelib chiqadigan intilish, niyatlar, hatti-harakatga soluvchi kuchlar, undashlar yig‘indisi bilan bog‘lashadi. Ular keltirib chiqaradigan asabiy, jismoniy taranglik, noqulaylik holati xuddi shu holatni bartaraf qilish, kamaytirish, undan oldingi, vazmin, tinch, muvozanatli holatga qaytarishga qaratilgan hatti-harakatlar, xulq atvorga olib keladi.

Shaxsni “boshqa sabablardan kelib chiqish” tamoyili asosida o‘rganmoqchi bo‘lgan neobixevioristlar nazariyasiga ko‘ra, yangi harakatga soluvchi kuchlar, undashlar, niyatlar, istaklar individning tug‘ma tabiiy (organik) ehtiyojlarini qondirish bilan birga u yoki boshqa rag‘batlarning birikishi, qo‘shilishi natijasida ham paydo bo‘ladi. Bunday birikish natijasida shartli rag‘bat o‘z undash kuchi, harakatga soluvchi kuch oladi. Bu nuqtai nazardan, hozirgi zamon psixologiyasida insonning barcha yuksak, ruhiy ehtiyojlari uning organik tabiiy holatlaridan kelib chiqadi va kelgusida fiziologik ehtiyojlarni qondirish uchun signallar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Neobixevioristlar ikkilamchi undash, harakatga keltiruvchi omillar birlamchilarini qayta qurmaydi, balki ularning tashqi qoplami, oldi kirish qismi bo‘lib xizmat qiladi deb ta’kidlashadi. Miller va Dollar ikkilamchi va birlamchi harakatga keltiruvchi, undash kuchlari, istak, niyatlar nisbatiga aynan shu ma’noda ta’rif berishadi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, ikkilamchi harakatga keltiruvchi, undash kuchlari, harakatga keltiruvchi kuchlar shunday birlamchi kuchlar asosida o‘zlashtiriladi, egallanadi va ularning rivojlanishi uchun, ularning “orqasida ularning asosi bo‘lmish tug‘ma harakatlantiruvchi kuchlarning funksiyalari yashirin old qismi, peshtoqi bo‘lib sifatida xizmat qiladi” [2, 55].

Inson xulq atvorining yuqori rag‘batlarini (motivlarini) tabiiy, organik harakatlantiruvchi kuchlarga xizmat qiluvchi, tashqi jihatdan ular ustiga moslashadigan, biroq ularni o‘zgartirmaydigan rag‘batlar deb talqin qilishda neobixevioristlar freydistlar bilan bir nuqtada to‘laqonli uchrashishadi.

Freydizm shaxs rag‘batlantirish (motivasiya) tizimining barcha boyligini ikki o‘zgarmas harakatlantiruvchi kuchga – huzur-halovat tamoyili doirasida amal qiladigan, va xizmatida voqelik deb nomlangan tamoyil bo‘lgan hayot va o‘lim instinktlari darajasiga tushishga olib keladi deb ta’kidlash yozilgan edi [3, 7].

Xuddi shunday o‘zgarmas, xulq-atvorning organizmning teran ildiz otgan harakatga soluvchi kuchlarga – o‘z imkoniyat, salohiyatlarini ifoda etish (*Goldshteyn, Maslou*), o‘z salohiyat, qobiliyatlarini tinimsiz amalga oshirish

(Fromm), ijodiy amalga oshirish (Broler), o'sish yoki rivojlanish (Rojers), baxtga intilish (Xorni) rag'batlariga (motivlariga) shaxsni o'rganuvchi boshqa nazariyotchilar ham isbotsiz qabul qilinadigan holatni postulat sifatida qaraydilar.

O'z imkoniyat, salohiyatlari, qobiliyatlarini amalga oshirish tarafdorlari insonning mavjud, real, biroq hali o'rganilmagan rag'batini motivasiyasini aniqlashga va unga tadqiqotchilar diqqat-e'tiborini tortishga erishishgani shubhasiz, shuningdek, o'z imkoniyat, salohiyatlari, qobiliyatlarini amalga oshirish rag'batini xulq atvorning faqat ichki omillar tomonidan belgilanadigan, aniqlanadigan harakatga tushiruvchi kuchi deb tushunmaslik lozim ekanligini ham shubhasizdir.

Faqat jahon taraqqiyot tendensiyalari muayyan ijtimoiy-tarixiy shartlar, tarbiya tizimida aks etgan jamiyat talablari, individ hayotining muayyan (konkret) vaziyatlari ta'sirida ushbu rag'batning tabiiy dastlabki shartlari shaxsning barcha imkoniyatlari, qobiliyatlarini, kuchlarining to'la amalga oshirilishida shaxs ehtiyoji darajasigacha o'sib rivojlanishi mumkin.

Bunda individ hayot tarzi faoliyatining muayyan ijtimoiy-tarixiy shartlari tomonidan belgilanadigan o'z imkoniyat, salohiyatlari, qobiliyatlarini amalga oshirish rag'batining ma'lum bir mazmuni sifatida namoyon bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan shaxs nazariyalarida o'z aksini topmagan turli xil muayyan ehtiyojlar shaklida mavjuddir. Demak individ yoki shaxs o'z faoliyat davomida taraqqiyot tendensiyalariga moslashish va hayotiy ehtiyojlarida manaviy qoniqish xosil qilib borish lozim.

Shu boisdan shaxsning gomeostatik modeli tarafdorlari ehtiyojlar muammolarini tabiiy fanlar asoslariga mos ravishda tadqiq qilish bilan ko'p xorijiy olimlar bu masalaga gomeostaz deb nomlanuvchi tirik organizmlarning muayyan xossasi, qobiliyati bilan bog'lab yechim keltirishadi. Kennonning yozishicha shaxs o'z ehtiyojlaridan qoniqishi uning manaviy turmush tarzi va imkoniyatiga bog'liqdir.

K. Bernar atrof-muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay shuningdek, jahon taraqqiyot tendensiyalarini o'zgarishiga qaramasdan ichki muhitlarning doimiyligini saqlab tura olish qobiliyati tirik jonzoatlarning o'ziga xos jihati haqidagi nazariyani ilgari surgan. Organizmning risoladagiday (normal) yashashi, barcha organlarning ichki muvozanat holatini saqlash, ularning optimal organik o'zaro harakati jiddiy ahamiyatga ega.

Biroq ushbu muvozanat ko'p hollarda buziladi, chunki organizmda modda almashinuv bilan bog'liq o'zgarishlar va uning atrof-muhit haroratining, ya'ni jahon taraqqiyot tendensiyalarini shaxsni ma'naviy ehtiyojlari o'zgarishiga, ya'ni transformasiyasiga olib kelish kuzatilmoqda u xolda u tomonidan keladigan xavf-xatarlar va hokozalar kabi tashqi muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan

bog'liq xolda shaxs xulq atvorida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Demak organizmni ichki muvozanat holatida saqlash yoki boshqa so'zlar bilan aytsak, ichki muhitning doimiyligini saqlab qolish uchun, individ muvozanatini buzuvchi ta'sir qilish kuchlari, qo'zg'atuvchilarga tegishli tarzda qarshi tura olishi, javob bera olishi lozim.

Bu ma'noda har qanday rivojlangan jamiyat tendensiyasiga ko'ra ehtiyojlarni qondirish o'zini o'zi tartibga solish faoliyatining maqsadi hamdir. Har bir individ o'zini to'g'ri yashashini ta'minlay oladigan sharoitlarning bo'lishini talab qiladi. Risoladagiday normal yashay olish – berilgan vaqt, lahzada to'g'ri, o'z-o'zini tartibga solish va ko'payish imkoniyati va qobiliyati (chunki individni turni saqlab qolmasdan asrab qolish uning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi) va to'g'ri rivojlanishdir.

Shunga o'xshash fikrlash asosida, V.N Myasishev qandaydir bir  $Y$  ob'yektiga bo'lgan ehtiyojni  $X$  organizmning o'zi  $Y$  ob'yektisiz risoladagiday yashay olmasligiga, ya'ni o'zini va o'zi mansub hayvonlar turini saqlab qolish uchun optimal imkoniyat olmasligi, shuningdek, o'zining rivojlanishini ta'minlay olmasligiga asoslangan ehtiyoji deb ta'riflaydi [4, 19-287].

Xorij psixologiyasida ehtiyojni jarayon emas, balki muayyan bir holat deb tushunadigan, bunda Goldshteynning konsepsiyasi ham e'tiborga loyiq. Uning nazariyasiga ko'ra, organizmda asabiy, jismoniy taranglikning doimiy holati, ko'rsatkichi mavjud bo'ladi va tashqi yoki ichki omillar ta'siri natijasida ushbu holatdan har qanday og'ish sodir bo'lsa, u ushbu holatga qaytishga harakat qiladi. Shunday qilib, ehtiyojlarni qondirish jarayonida ichki tarangliklarni yechish, yengillashtirish haqida emas, balki barobarlashtirish – ekvalizatsiya haqida fikr yuritish lozim. Shaxs yaxshi yashashi ekvalizatsiya har qanday risoladagiday sog'lom shaxs hatti-harakatlarining maqsadi hisoblanadi.

Hayot tajribasining yetilishi, yig'ilishining barchasi – ichki taranglikni muvozanatga solishga intilishdan boshqa narsa emas. Amalda bu buzilish, halokat va ichki ziddiyatlarni oldini olishga intilishni anglatadi.

Organizmning hatti-harakatlari erishilgan tashqi va ichki shuningdek, jahon taraqqiyotining tendensiyalaridan dunyoda sodir bo'ladigan tasodifiy o'zgarishlardan ozodlikni bo'ladigan transformatsiya jarayonlardan sodir bo'lishi kuzatilmoqda. Bunday hatti-harakatlarning tabiati organizmning ehtimoliy imkoniyatlarga bog'liq bo'ladi, ularni amalga oshirish, ulardan to'la foydalanish shaxsning har tomonlama rivojlanishini yoki o'z salohiyatlarini amalga oshirishini ta'minlaydi.



### References:

1. Фрейд.З. Лекции по введение в психологии.-Т.:2. –М.-1922 с 201.
2. G'oziev E.F. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –Т.. “Universitet” 2003. 55 bet.
3. Fromm E. Man for Himself. L.1967. p.7.
4. Мясищев В.Н. Способности и потребности. ЛГУ. 1960. Вып. 19. №287.
5. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
6. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
7. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.
8. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.
9. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
10. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUNIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
11. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ХАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>